

“KELISHILGAN”
“OPEN BANK” AJ
Boshqaruv raisi o‘rinbosari
I.B.Egamov

(imzo va muhr o‘rni)

“ ” 2026 yil

“TASDIQLAYMAN”
“MY-INSURANCE” AJ ST
Bosh direktori
A.Q.Yuldashev

(imzo va muhr o‘rni)

“ 18 ” 01 2026 yil

JISMONIY SHAXSLARGA ONLAYN SHAKLDA UY-JOY XARIDI UCHUN “IPOTEKA MUDDATLI TO‘LOVI” QARZ MABLAG‘LARI HISOBIDAN SOTIB OLINGAN IPOTEKA (K‘OCHMAS MULK)NI SUG‘URTALASH TO‘G‘RISIDA OMMAVIY OFERTA SHARTNOMASI

Mazkur Ommaviy oferta «OPEN BANK» AJ (matn davomida “Naf oluvchi”) tomonidan jismoniy shaxslar (matn davomida “Sug‘urta qildiruvchi” / “Qarz oluvchi”)ga onlayn shaklda ajratiladigan “Ipoteka muddatli to‘lov” qarz mablag‘lari (matn davomida “Qarz shartnomasi”) hisobidan harid qilingan, qarz shartnomasining ta‘minoti sifatida Naf oluvchiga ipotekaga berilayotgan ipoteka ko‘chmas mulk (uy/ko‘p qavatli xonadonlar)ni nobud bo‘lishi yoki uning shikastlanishidan quyida nomi ko‘rsatilgan sug‘urta tashkilotining onlayn sug‘urtalash taklifi bo‘lib hisoblanadi. (O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining (matn davomida “FK”) 367-moddasiga muvofiq)

Sug‘urta qildiruvchi mazkur taklifda ko‘zda tutilgan hatti-harakatlarni amalga oshirgan (akseptlangan) paytdan boshlab, «MY-INSURANCE» AJ Sug‘urta Tashkiloti (keyingi o‘rinlarda “Sug‘urtalovchi”) va Naf oluvchilar o‘rtasida shartnoma tuzilgan hisoblanadi hamda Sug‘urta qildiruvchi/Qarz oluvchi mazkur Ommaviy oferta (matn davomida sug‘urta shartnomasi)ning barcha shartlarini istisno qilmagan holda so‘zsiz qabul qilganligini anglatadi.

Ushbu sug‘urta turi ixtiyoriy bo‘lib, sug‘urtalash sug‘urta mukofotini to‘lash orqali amalga oshiriladi.

1.OFERTADA QO‘LLANILADIGAN MAXSUS ATAMALAR VA TA‘RIFLAR

1.1. Quyida keltirilgan, ushbu Sug‘urta shartnomasida foydalanilgan atamalarining boshqa ma‘nolari alohida kelishilmagan bo‘lsa, ular quyidagi ma‘nolarga ega:

Sug‘urtalovchi – mazkur oferta shartlari bo‘yicha sug‘urta to‘lovini amalga oshirish majburiyatini qabul qiluvchi «MY-INSURANCE» AJ ST bo‘lib, u o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

Sug‘urta qildiruvchi – Sug‘urtalovchi bilan sug‘urta shartnomasini tuzgan va Sug‘urtalovchi bilan aniq sug‘urta munosabatlariga kiruvchi, o‘zining mulkiy manfaatlarini sug‘urtalayotgan jismoniy shaxs.


Qarz oluvchi – «Openbank» AJdan qarz olgan jismoniy shaxs.

Naf oluvchi (Benefitsiar) - Sug‘urta qildiruvchi tomonidan sug‘urta polisida sug‘urta qoplamasini yoki sug‘urta summasini oluvchi deb ko‘rsatilgan uchinchi shaxs.

Oferta (ommaviy oferta) – shartnomaning barcha asosiy shartlarini o‘z ichiga olgan, taklif kiritayotgan shaxsning javob qaytargan har qanday shaxs bilan taklifda ko‘rsatilgan shartlar asosida shartnoma tuzishga bo‘lgan xohish-irodasi bilinib turgan taklif.

Qarz shartnomasi – Naf oluvchi va Qarz oluvchi o‘rtasida qaytaruvchanlik, ta‘minlanganlik va muddatlilik shartlari asosida pul mablag‘larini ajratish maqsadida “Ipoteka muddatli to‘lovi” mahsuloti orqali onlayn rasmiylashtiriladigan hujjat (ommaviy oferta).

Sug‘urta mukofoti – mazkur ofertada belgilangan tartib va muddatlarda Sug‘urta qildiruvchi/Qarz



oluvchi tomonidan to'lanishi shart bo'lgan sug'urta uchun to'lov.

Sug'urta puli – Sug'urta shartnomasi bilan belgilanadigan, sug'urta hodisasi sodir bo'lganda Sug'urtalovchi javobgarligi hajmining chegarasini o'zida aks ettiruvchi pul mablag'lari miqdori.

Sug'urta qiymati – Sug'urta shartnomasini tuzish sanasida mol-mulkning sug'urta joyidagi haqiqiy bahosiga teng qiymat.

Sug'urta tovon – sug'urta hodisasi xaqiqatda sug'urta shartnomasida kelishilgan xolatlarda sodir bo'lganda sug'urtalangan mol-mulkka yetkazilgan zararni qoplash uchun sug'urta puli chegarasida to'lanadigan pul mablag'i.

Sug'urta polisi – Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchiga sug'urta mukofoti/sug'urta badalining to'liq to'langandan keyin electron tartibda beriladigan va Sug'urtalovchining mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlari kuchga kirganligini tasdiqlovchi hujjat.

Sug'urta muddati – sug'urta mukofoti o'z vaqtida to'lanishi sharti bilan sug'urta shartnomasi bo'yicha Sug'urtalovchining majburiyatlari amalda bo'ladigan, sug'urta polisida aniq ko'rsatilgan vaqt (davr) oralig'i.

Sug'urtalangan mol-mulk – sug'urta xududida joylashgan, ushbu Sug'urta shartnomasining 1-ilovasida tavsiflangan mol-mulk.

Sug'urta (hududi) joyi – Sug'urtalovchi sug'urta himoyasini taqdim etadigan, sug'urtalangan mol-mulk joylashgan manzil.

Sug'urta hodisasi - xaqiqatda sodir bo'lgan hodisa bo'lib, u sodir bo'lganda, Sug'urtalovchining bevosita ushbu shartnomada keltirilgan shartlar asosida Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchiga (oxirgisining talabiga ko'ra) sug'urta tovonini to'lash majburiyati yuzaga kelishini anglatadi.

Shartsiz franshiza – ma'lum mablag' miqdori bo'lib, uning chegarasida Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'lash bo'yicha majburiyatlar olib bormaydi. Ko'rsatilgan franshiza miqdori to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta tovonidan chegirib qolinadi.

1.2. Sug'urta hodisalari bo'limida qo'llaniladigan atamalar:

Zilzila – yer qarida muntazam sodir bo'ladigan, yerning ustki qismi silkinishi va tebranishi bilan kuzatiladigan tabiiy jarayonlar natijasi.

Sel – tog'li hududlarda qisqa vaqt ichida kuchli yog'ingarchilik, qor yoki muzliklarning erishi natijasida hosil bo'lgan kuchli suv oqimi.

Suv toshqini – daryo, ko'l, dengiz sathining ko'tarilishi yoki damba, to'g'on buzilishi natijasida hududni sezilarli darajada suv bosishi, shuningdek, boshqa shaxsning xatti-harakatlari (masalan, qo'shnining suvi oqib kelishi) sababli yuzaga kelgan suv toshqini.

Yong'in – tabiiy ofatlar natijasida kelib chiqqan yong'in, shuningdek, boshqa shaxsning xatti-harakatlari (masalan, qo'shnidan o'tgan yong'in) sababli yuzaga kelgan yong'in. Bu tabiiy omillar, masalan, yomg'ir, chaqmoq yoki quruq ob-havo sharoitlari natijasida yuzaga keladigan yong'inlar, shuningdek boshqa shaxsning xatti-harakatlari

Ko'chki – shamol yoki yerusti yoki yerosti suvlarning ta'sirida, qirg'oq yonbag'irlarini yuvilishi va jinslarning og'irlik kuchi ta'sirida yoki zilzila natijasida tog' jinslarining qulashi.

Dovul – kuchli shamol.

Jala – 12 soat yoki undan kam vaqtda yog'ingarchilik bo'lishi bilan kuzatilgan kuchli yomg'ir.

Qalin qor yog'ishi – bunday qor yog'ishi ushbu hudud uchun kamdan-kam (g'ayrioddiy) holat bo'lishi sharti bilan qisqa vaqt oralig'ida odatdagidan ko'p miqdorda – 12 soat va undan kam vaqtda qor yog'ishi. Xo'jasizlik sababli sekin-asta ko'p miqdorda qor to'planishi qalin qor yog'ishidan farqlanadi.

O'g'irlik qilish – O'g'irlik, ya'ni birovning mulkini yashirinchalari talon-taroj qilish, mol-mulkni o'zlashtirish bo'lib hisoblanadi:

a) odatdagi holatda odamlar kirishi uchun mo'ljallanmagan tuynuklar (masalan, havo almashtirish tuynuklari) orqali;

— 2 —

- b) to'siqlar, devorlar tomlardan tuynuk ochish orqali;
- v) eshiklarni buzish, oynalarga shikast etkazish, ochqich, yasama kalitlar yoki texnik vositalardan foydalanish orqali, qulfni ochqichda yoki boshqa vositalar bilan ochish hisoblanadi.

Izoh. «Uchinchi shaxslar» deganda Sug'urta qildiruvchi bilan shartnomaviy munosabatda bo'lgan har qanday jismoniy yoki yuridik shaxs tushuniladi.

Transport vositasining kelib urilish – sug'urtalangan mol-mulk har qanday er usti transport vositasi kelib urilish natijasida yo'qotilishi yoki shikastlanishini anglatadi.

Uchuvchi apparatlar va ularning qismlarining qulashi – uchuvchi apparatlar, ularning qismlari yoki yuklari tushishi natijasida sug'urtalangan mol-mulkni har qanday bevosita yo'qotilishi yoki shikastlanishini anglatadi.

2. SUG'URTA SHARTNOMASINING PREDMETI

2.1. Mazkur oferta orqali sug'urtalash shartlari va istisnolarga muvofiq, sug'urta mukofotini sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan miqdor va muddatda to'lanilishi evaziga Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta hodisalari bo'yicha sug'urta qoplamasini Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchiga (oxirgisining talabiga ko'ra) belgilangan tartibda va miqdorda qoplash majburiyatini olinadi.

2.2. Sug'urta xududida joylashgan, ushbu Ommaviy ofertaning 1-ilovasida tavsiflangan mol-mulk sug'urta ob'ekti hisoblanadi.

3. SUG'URTA HODISASI

3.1. Ushbu Shartnomada nazarda tutilgan muddat, shartlar va istisnolarga muvofiq, Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchiga sug'urta hodisasi deb e'tirof etilishi mumkin bo'lgan quyidagi hodisalar oqibatida sug'urtalangan mol-mulkning shikastlanishi yoki yo'qotilishi natijasida yuzaga kelgan zarar miqdorini qoplaydi:

- **nobud bo'lish yoki shikastlanish, quyidagi holatlar ta'sirida:**
- Uchinchi shaxslarning g'ayriqonuniy harakatlari;
- Transport vositalarining kelib urilishi;
- Uchuvchi apparatlar va ularning qismlarining kelib tushishi;
- Zilzila, sel kelishi, suv toshqini, yong'in, shu jumladan tabiiy yong'in, ko'chki, dovul, jala, qalin qor yog'ishi;
- O'g'irlik qilish;

4. SUG'URTA HODISASIDAN ISTISNOLAR

4.1. Har qanday holatlarda quyidagi shart-sharoit va/yoki quyidagilar natijasida yuzaga kelgan zarar (sug'urta xodisalari) lar bo'yicha sug'urta to'lovni qoplanmaydi:

- zarar Ommaviy ofertada ko'rsatilgan «sug'urta hodisasi» oqibatida vujudga kelmagan bo'lsa;
- sug'urta shartlariga ko'ra, belgilangan muddatlarda murojaat qilinmagan bo'lsa (FK 951-moddasi);
- sug'urtalangan obyektning tabiiy eskirishi natijasida emirilishi (chirishi) yoki mol-mulkning boshqa tabiiy xususiyatlari;
- mol-mulkning Sug'urtalovchining majburiyatlari kuchga kirgan paytda mavjud bo'lgan yoki Sug'urta qildiruvchiga, uning tarkibiy bo'linmasiga yoki vakolatli shaxslariga ma'lum qilishi shart bo'lgan nuqsonlari;
- Sug'urtalovchini yozma ravishda xabardor qilmagan xolda sug'urta ob'ektida qurilish-montaj, ishga tushirish, sozlash ishlari, test sinovlari, dastlabki sinov va boshqalarni amalga oshirish.
- Sug'urta qildiruvchi tomonidan texnika xavfsizligi, yong'in xavfsizligi qoidalariga (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.05.2024 yildagi 319-son bilan tasdiqlangan qarori talablarini buzish, elektr/gaz tarmoqlariga qonunchilikka zid ravishda ulanish/foydalanish natijasida kelib chiqqan

xar qanday yong'in/portlash kelib chiqishi) amal qilmaslik va qisqa tutashuv natijasida mol-mulkga etgan zararlar;

- yong'in natijasida yuzaga kelmagan olovdan shikastlanish, shuningdek sug'urtalangan (qayta ishlash yoki boshqa maqsadlarda masalan quritish, eritish, dazmollash, tutatish, qovurish, issiklik bilan ishlov berish yoki metallarni eritish va h.k) mol-mulkka olov, issiqlik yoki boshqacha harorat bilan ishlov berish natijasida shikastlanishlar;

- extiyotsizligi okibatida elektro kurilmalar va/yoki maishiy texnikalarning yoniq xolda koldirib ketishligi natijasida yong'in kelib chikanida;

- elektro kurilmalarining notog'ri o'rnatilganlisi sabab yoki kiska tutashuv natijasida yuzaga kelgan bo'lsa.

4.2. Sug'urta voqeasi quyidagilar natijasida sodir bo'lsa, Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'lashdan ozod bo'ladi:

- urush yoki harbiy harakatlar (urush e'lon qilinganligi yoki qilinmaganligidan qat'iy nazar);
- qo'zg'olon, inqilob, isyon, g'alayon, lokaut, fuqarolar tartibsizliklari, ommaviy tartibsizliklar;
- hokimiyatni noqonuniy egallanishi, fitna, terrorchilik harakati, rasmiy favqulodda xolatlari;
- yadroviy nurlanish yoki radioaktiv zaharlanish yoki radioaktiv ifloslanish.

5. SUG'URTA PULI, SUG'URTA MUKOFOTI VA SUG'URTA POLISINI BERISHI TARTIBI

5.1. Ommaviy oferta shartlari bilan belgilanadigan, sug'urta hodisasi sodir bo'lganda Sug'urtalovchi javobgarligi hajmining chegarasini o'zida aks ettiruvchi pul mablag'lari miqdori u sug'urta polisida ko'rsatib o'tiladi.

5.2. Ommaviy oferta mijoz tomonidan akseptlangandan so'ng, oldi-sotdi shartnomasi asosida unga tegishli bo'lgan, Naf oluvchiga ipotekaga berilayotgan ipoteka ko'chmas mulk (uy/ko'p qavatli xonadonlar)ni nobud bo'lishi yoki uning shikastlanishi bilan bog'liq xatarlardan sug'urtalash bo'yicha sug'urta mukofoti quyidagicha hisoblanadi:

- Sug'urta mukofoti Naf oluvchiga ipotekaga berilayotgan ipoteka ko'chmas mulk (uy-joy/ko'p qavatli xonadonlar)ni nobud bo'lishi yoki uning shikastlanishi bilan bog'liq xavflardan sug'urtalashda, sug'urta qiymatidan yillik **0,05 (nol butun yuzdan besh) foiz** miqdorida hisoblanadi.

Sug'urta mukofoti Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi tomonidan Sug'urtalovchining hisob raqamiga to'liq to'lanishi shart.

5.3. Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi sug'urta mukofoti to'liq to'langandan keyin sug'urta polisi elektron tartibda taqdim etiladi. Avtomatlashtirilgan axborot tizimi (e-polis) orqali elektron ko'rinishda taqdim etilgan sug'urta polisi bilan qog'oz ko'rinishida tasdiqlangan sug'urta polisi bir xil yuridik kuchga ega.

5.5. Sug'urta shartnomasi bo'yicha barcha hisob-kitoblar so'mda amalga oshiriladi.

6. SUG'URTA SHARTNOMASINING KUCHGA KIRISHI VA AMAL QILISH MUDDATI

6.1. Mazkur ommaviy oferta Sug'urta qildiruvchi tomonidan akseptlagan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

6.2. Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash majburiyatlari sug'urta mukofoti to'langan sanadan keyingi kun soat 00:00 dan boshlab kuchga kiradi va sug'urta polisida ko'rsatilgan davrga qadar amal qiladi.

6.3. Mazkur oferta va uning shartlari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 367, 369, 370, 927-moddalariga asosan ishlab chiqilgan.

7. SUG'URTA SHARTNOMASINING BEKOR QILISH TARTIBI

7.1. Ushbu Shartnoma quyidagi holatlarda bekor bo'ladi:



- a) Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta mukofoti shartnomada ko'rsatilgan muddat va miqdorda to'lanmaganda;
- b) amal qilishi muddati tugaganda;
- v) tomonlarning kelishuviga muvofiq;
- g) Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi va Naf oluvchi majburiyatlarni bajarmasa hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida keltirilgan boshqa holatlarda.

7.2. Sug'urta shartnomasi muddatidan avval tomonlardan birining yozma arizasiga binoan bu haqda bekor qilish mo'ljallangan sanaga qadar 10 (o'n) ish kundan kechiktirmasdan xabar qilinishi sharti bilan bekor qilinishi mumkin.

7.3. Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi va Naf oluvchi Sug'urta polisidan istalgan paytda voz kechishi mumkin. Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi yoki Naf oluvchi tomonidan sug'urta polisi muddatidan avval bekor qilinganda, to'langan sug'urta mukofoti, Sug'urtalovchining xarajatlarini to'langan sug'urta mukofotining 25 foizi miqdorida chiqarib tashlangan holda sug'urta mukofotining qolgan summasidan sug'urta davrining tugamagan qismiga mutanosib ravishda, qaytarib beriladi.

7.4. Agar ushbu Sug'urta shartnomasi bo'yicha Sug'urtalovchi sug'urta tovonini bunday to'lov summasidan qat'iy nazar to'lagan bo'lsa yoki unda sug'urta hodisasi yuz berishi munosabati bilan sug'urta tovonini to'lashga doir majburiyat bo'lsa, sug'urta mukofoti qaytarilmaydi.

8. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

8.1. Sug'urta qildiruvchining/Qarz oluvchi va Naf oluvchining huquqlari:

8.1.1. Sug'urtalovchidan sug'urtalash shartlarini bajarilishini talab qilishi va sug'urta shartlari bo'yicha har qanday tushuntirishlar olishi.

8.1.2. Tomonlarning kelishuvchiga ko'ra ushbu Sug'urta shartnomasiga o'zgarishlar va qo'shimchalar kiritishi.

8.1.3. Sug'urtalovchi sug'urta to'lovini rad etishi ustidan sudga shikoyat qilishi.

8.1.4. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, sug'urtalash shartlarida ko'rsatilgan boshqa huquqlardan foydalanishi.

8.2. Sug'urta qildiruvchining/Qarz oluvchi va Naf oluvchining majburiyatlari:

8.2.1. Sug'urta shartnomasini tuzayotganda, Sug'urtalovchiga sug'urta hodisasi sodir bo'lishi ehtimolini va u sodir bo'lishidan yetishi mumkin bo'lgan zararlar miqdorini aniqlash uchun sezilarli ahamiyatga ega, unga ma'lum bo'lgan barcha tafsilotlar haqida xabar qilishi. Sug'urtalovchi talabiga ko'ra, sug'urta mukofotini hisoblash uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlarni taqdim etishi shart.

8.2.2. Sug'urtalovchi talabiga ko'ra, sug'urta mukofotini hisoblash uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlarni taqdim etishi shart.

8.2.3. Sug'urta hodisa sodir bo'lgan vaqtdan boshlab, 15 (o'n besh) ish kundan kechiktirmasdan Sug'urtalovchini bu haqida xabardor qilishi shart.

8.2.4. Sug'urtalovchiga ushbu Sug'urta shartnomasini tuzayotganda xabar qilingan tafsilotlarda sezilarli o'zgarishlar haqida, agar bu o'zgarishlar sug'urta qaltisligi darajasiga sezilarli ta'sir etishi mumkin bo'lsa, ushbu Sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan davrda Sug'urta qildiruvchi o'ziga ma'lum bo'lgan tafsilotlar haqida Sug'urtalovchiga darhol xabar berishi shart.

Sezilarli o'zgarishlar bo'lib Ariza-so'rovnoma xabar qilingan tafsilotlar (shu jumladan mol-mulkni ijaraga berilishi, buzilishi, bino yoki qurilmalarning qayta qurilishi yoki qayta jihozlanishi, mol-mulk shikastlanishi yoki yo'q qilinishi va sh.k.) hisoblanadi.

Sug'urta qaltisligi oshishiga olib keluvchi tafsilotlar haqida xabar topgan Sug'urtalovchi qaltislik oshishiga mos qo'shimcha sug'urta mukofoti to'lanishini talab qilishga haqli.

Agar Sug'urta qildiruvchi yoki Qarz oluvchi qo'shimcha sug'urta mukofoti to'lanishiga qarshi bo'lsa Sug'urtalovchi ushbu Sug'urta shartnomasini bekor qilinishini talab qilishga haqli. Ushbu Sug'urta shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi kelishuv yozma shaklda amalga oshiriladi.

8.2.5. ushbu Sug'urta shartnomasi shartlariga muvofiq sug'urta hodisasi deb tan olinishi mumkin bo'lgan voqea sodir bo'lsa:

a) sug'urta voqeasi sodir bo'lgan paytdan boshlab 3 (uch) kundan (72 soat) kechiktirmay Sug'urtalovchi yoki uning vakilini voqea sodir bo'lganligi haqida xabardor qilishi;

b) tegishli xabarni bergandan keyin 15 (o'n besh) ish kun ichida Sug'urtalovchiga zararga ta'sir etgan, unga ma'lum sabablar va tafsilotlarni ko'rsatgan holda yozma arizani yo'llashi;

v) darhol mol-mulkni qutqarish uchun zararni yanada ko'payishini va qo'shimcha zarar yuzaga kelishini oldini olish bo'yicha imkoni bor choralarni ko'rishi, shu jumladan zararlangan mol-mulkni qo'riqlanishini ta'minlashi va Sug'urtalovchidan olingan yo'riqnomalarni bajarishi;

d) shikastlangan mol-mulkni Sug'urtalovchining vakili kelguniga qadar sodir bo'lgan voqeadan keyingi holatida saqlashi. Zarar miqdorini kamaytirish nuqtai nazaridan kelib chiqib, Sug'urtalovchining yozma roziligi bilan bartaraf etish choralarini amalga oshirilishi mumkin. Bunda Sug'urta qildiruvchi voqea ko'rinishini foto- yoki video tasvirga tushirishi shart;

e) Sug'urtalovchiga shikastlangan mol-mulkni yoki uning qoldiqlarini, shuningdek uning qismlari, detallari va unga tegishli jihozlarni yoki ularning qoldiqlarini taqdim etishi;

yo) Sug'urtalovchiga shikastlangan, nobud bo'lgan yoki yo'qotilgan mol-mulkning ro'yxatini taqdim etishi;

j) qarz shartnomasi buyicha belgilangan majburiyatlarni to'liq bajarishi;

z) zarur hollarda, sug'urta hodisasi sodir bo'lgan paytda mulkdorlik huquqi yoki nobud bo'lgan (yo'qolgan) mol-mulkdagi boshqa mulkiy manfaati mavjudligini tasdiqlovchi hujjatni (mulkdorlik huquqi hakida guvohnoma, oldi-sotdi shartnomasi, ijara shartnomasi va sh.k.) taqdim etishi;

i) qarz shartnomasi sud tomonidan muddatidan avval bekor qilinganda yoki sud tomonidan muddatidan avval undirish belgilanganda sug'urtalovchini sud qarorini qabul qilgandan keyin 10 (o'n) ish kuni ichida yozma xabardor qilish shart;

8.2.6. Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta xodisasi natijasida Sug'urta Qildiruvchiga sug'urta to'voni to'lab berilgan taqdirda, Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining birinchi talabiga binoan ipotekaga qo'yilgan mulkning shikastlangan qismlarini taqdim etishi shart.

8.2.7. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va mazkur sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan boshqa majburiyatlarni bajarishi shart.

8.3. Sug'urtalovchining huquqlari:

Ushbu Sug'urta shartnomasi doirasida:

8.3.1. Sug'urtalovchining huquqlari:

a) Sug'urtalangan mol-mulkning holatini, shu jumladan Ariza-so'rovnoma ko'rsatilgan shartlarga to'g'ri kelishini tekshirishi.

b) Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi uchun majburiy bo'lgan, zararni kamaytirishga qaratilgan yo'riqnomalar berishi. Sug'urtalovchi yoki uning vakillarining bu harakatlari Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'lash majburiyatini tan olganligini anglatmaydi.

8.3.2. Sug'urta to'voni to'lashni rad etishi, agar:

a) Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi sug'urta hodisasi sodir bo'lganligi haqida ma'lum bo'lgandan keyin Sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan muddat va tartibda xabar bermagan bo'lsa.

b) Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchi yoki uning vakili etkazilgan zarar tavsiloti, tavsifi va miqdorini aniqlashda ishtirok etishiga qarshilik qilsa.

v) Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining talabiga asosan sug'urta hodisasi va zarar miqdorini aniqlash uchun ushbu Shartnomaning 9.2.-bandida ko'rsatilgan hujjatlar/ma'lumotlar/axborotlarni taqdim etmagan bo'lsa;

g) Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi Sug'urtalovchi qoplagan zararlar uchun javobgar shaxsdan talab qilish huquqidan voz kechsa yoki Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchining aybi bilan bu huquqni

-6

amalga oshirishning imkoni bo'lmay qolsa;

d) Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi ushbu Sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmasa.

8.3.3 Agar ushbu Sug'urta shartnomasi tuzilgandan keyin Sug'urta qildiruvchi sug'urta hodisasi sodir bo'lishi ehtimolini va u sodir bo'lishidan yetishi mumkin bo'lgan zararlar miqdorini aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega, Sug'urtalovchiga avvaldan yolg'on ekanligi ma'lum bo'lgan ma'lumotlarni xabar qilsa, ushbu Sug'urta shartnomasini haqiqiy emas deb topilishini talab qilishi.

8.3.5. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va Sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan boshqa huquqlardan foydalanishi.

8.4. Sug'urtalovchining majburiyatlari:

8.4.1. Sug'urta polisini sug'urtalash shartlarida belgilangan muddatlarda berishi.

8.4.2. ushbu Sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan muddatda Sug'urta qildiruvchi va Naf oluvchiga sug'urta masalalari bo'yicha maslahatlar berishi.

8.4.3. Sug'urtalovchi sug'urta hodisasi deb tan olgan holatlar bo'yicha ushbu Sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan muddatda sug'urta to'lovni to'lovini amalga oshirishi.

8.4.4. Ushbu Shartnoma amal qilishi mobaynida Sug'urta qildiruvchi, va/yoki Qarz oluvchi, va/yoki Naf oluvchidan olingan axborotni sir saqlashi, Sug'urtalovchi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq davlat idoralariga axborot taqdim etishi shart bo'lgan hollar bundan mustasno.

8.4.5. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va Sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni ham bajarishi.

9. DA'VOLARNI KO'RIB CHIQISH TARTIBI

9.1. Ushbu shartnoma doirasida Sug'urtalovchidan sug'urta to'lovni to'lovini talab qilishga asos bo'lishi mumkin bo'lgan voqea sodir bo'lganda Sug'urta qildiruvchi va Naf oluvchi tomonidan darxol, lekin 72 (etmish ikki) soatdan kechiktirmay xabar berishi va shundan keyin voqea sabablari va tafsilotlarini ko'rsatgan holda 15 (o'n besh) ish kuni ichida yozma xabarnomani jo'natadi;

9.2. Sug'urta to'lovni to'lovi haqida ariza va unga quyidagi hujjatlar ilova qilinishi shart:

- i. sug'urta to'lovni to'lovi haqida ariza;
- ii. mazkur ofertaning 3-bolimida keltirilgan tabiiy ofatlar natijasida sug'urta xodisasi sodir bo'lganligini tasdiqlovchi mutassadi tashkilot/idoralar (FVV hududiy idoralari, O'zRes Gidrometereologiya xizmati va sh.k.) xulosa, qaror, ma'lumotlar va h.k.;
- iii. **shikastlanish**, o'g'rilik hodisalari yuzasidan voqea tavsilotlarini ko'rib chiqish, tergov qilish vakolatiga ega mutasaddi idoralar (IIB, FVV hududiy idoralari, Sud va sh.k.)dan voqea tavsilotlari va sabablari ko'rsatilgan ma'lumotnoma xujjatlar, xulosa, qaror, dalolatnoma, ajrim, xukm, bayonnoma va h.k.;
- iv. sug'urta polisi (asli);
- v. baholovchi tashkilotning etkazilgan zarar miqdori haqida dalolatnomasi/xulosasi/hisoboti (to'lov chek/to'lov varakasi nusxasi);
- vi. ushbu Ommaviy oferta shartlariga muvofiq mazkur sug'urta voqeasiga tegishli boshqa hujjatlar.

Ushbu Shartnomaning 9.2-bandiga muvofiq taqdim etilgan hujjatlar ulardan nusxa ko'chirilib, taqdim etilgan hujjatlar haqiqiy ekanligiga ishonch hosil qilingandan keyin, Sug'urta qildiruvchiga qaytariladi.

9.3. Sug'urta qoplamasi to'lovi haqidagi arizada Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi quyidagilarni ko'rsatishi shart:

- sug'urta voqeasining sanasi va tafsilotlari;

– uchinchi shaxslar zararning o‘rnini qoplaganligi miqdori (bunday qoplama olingan taqdirda).

9.4. Sug‘urta qildiruvchi har qanday yo‘qotish va/yoki shikastlar haqida xabar qilgan taqdirda, Sug‘urtalovchi o‘z xodimini yoki boshqa shaxsni da‘voni ko‘rib chiqish va sodir bo‘lgan voqeaning turi, sababi va tavsilotlarini batafsil o‘rganish uchun yuborishga majbur.

9.5. Sug‘urta qildiruvchi sug‘urta voqeasi oqibatlarini faqat Sug‘urtalovchi bilan o‘z harakatlarini kelishib olgandan keyin bartaraf etishga kirishish huquqiga ega.

9.6. Sug‘urtalovchi zararni oldini olish yoki kamaytirish maqsadida amalga oshirilgan xarajatlarni, agar sug‘urta shartlariga muvofiq bu zarar qoplanishi lozim bo‘lsagina, qoplaydi.

9.7. Voqea sodir bo‘lganligi fakti bo‘yicha jinoiy, ma‘muriy, iqtisodiy ishi ochilgan taqdirda Sug‘urtalovchi tegishli mablag‘larni to‘lash masalasini mutasaddi idoralar tomonidan tegishli qaror qabul qilingunga qadar qoldirishi mumkin.

9.8. Ushbu voqeaga tegishli Shartnomaning 9.2-bandida ko‘rsatilgan hujjatlar/axborotlar/ma‘lumotlar taqdim etilgandan so‘ng Sug‘urtalovchi 15 (o‘n besh) kun ichida sodir bo‘lgan voqeani tan olish yoki tan olmaslik haqida qaror qabul qiladi. Sodir bo‘lgan voqea sug‘urta hodisasi deb tan olinsa, 3 (uch) kun ichida to‘lanishi lozim bo‘lgan sug‘urta tovonni miqdori belgilanadi va Sug‘urta hodisasi to‘g‘risidagi dalolatnomada ko‘rsatiladi.

9.9. Sug‘urtalovchi voqeani sug‘urta hodisasi deb tan olish yoki olmaslik to‘g‘risidagi qaror qabul qilinishini agar sug‘urta hodisasini tasdiqlovchi hujjatlar haqiqiy emasligi to‘g‘risida ma‘lumot bo‘lsa, ushbu hujjatlar haqiqiy ekanligi tasdiqlanganiga qadar keyinga qoldirishi mumkin.

9.10. Zarar, buzilish yoki shikastlanish qoplanishi lozimligini isbotlash Sug‘urta qildiruvchi zimmasida.

10. SUG‘URTA TOVONI MIQDORI VA TO‘LASH TARTIBI

10.1. Sug‘urta tovonni to‘lovi quyidagicha to‘lanadi:

a) mol-mulkdan to‘liq mahrum bo‘lganda (to‘liq nobud bo‘lishi) – yo‘qotilgan mol-mulkning ushbu Sug‘urta shartnomasi tuzilgan sanadagi sug‘urta puli miqdorida;

b) mol-mulk shikastlansa (qisman buzilsa) – tiklash xarajatlari miqdorida, lekin sug‘urta pulidan oshmagan miqdorda.

10.2. Tiklash xarajatlari o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

a) ta‘mirlash (tiklash) uchun materiallar va ehtiyot qismlar;

b) ta‘mirlash bo‘yicha ishlarni to‘lab berish xarajatlari;

v) materiallarni ta‘mirlash joyiga etkazib berish hamda sug‘urtalangan mol-mulkni sug‘urta hodisasidan avvalgi holatigacha tiklash uchun zarur boshqa xarajatlar;

10.3. Quyidagilar tiklash xarajatlari hisoblanmaydi va Sug‘urta shartnomasi bilan qoplanmaydi:

a) sug‘urtalangan ob‘ektni yaxshilashdan kelib chiqqan xarajatlar;

b) sug‘urtalangan mol-mulkni o‘zgartirish/takomillashtirish/yangilash bilan bog‘liq xarajatlar;

v) zaruridan ortiq boshqa xarajatlar;

g) sug‘urtalangan mol-mulk sug‘urta hodisasi yoki boshqa omillar ta‘sirida (tabiiy va sh.k.) tovar ko‘rinishini yo‘qotishi.

d) Sug‘urtalovchi tomonidan etkazilgan zarar miqdorini aniqlash, zarur xolatlarda qayta baholash ishlariga Sug‘urta qildiruvchi/Qarzdor to‘sqinlik qilsa yoxud Sug‘urtalovchining ruxsatisiz ta‘mirlash ishlarini amalga oshirgan bo‘lsa, sug‘urta tovonni to‘lanmaydi.

10.4. Agar sug‘urtalangan mol-mulkdan xavfsiz foydalanish uchun uni ta‘mirlash kifoya bo‘lishiga qaramay, sug‘urtalangan mol-mulkning zararlangan qismlari yoki buyumlari almashtirilsa, Sug‘urtalovchi sug‘urta tovonini ushbu qismlar yoki buyumlarni ta‘mirlash qiymati miqdorida, lekin ularni almashtirish qiymatidan oshmagan miqdorda to‘laydi.

10.5. Sug‘urta qildiruvchi sug‘urta hodisasidan keyin qolgan mol-mulkdan voz kechish huquqiga

- 8 -

ega emas. Bunday mol-mulkning qoldiq qiymati sug'urta tovonidan chegirib qolinadi.

Izoh: Qoldiq qiymat bo'lib nobud bo'lgan yoki shikastlangan mol-mulkdan qolgan, shu jumladan zararlanmagan materiallar, qismlar va detallarni sotish yoki ularni metallomga yoki chiqindi sifatda topshirishda qo'llaniladigan narxlarda aniqlanadigan qiymat hisoblanadi.

10.6. Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchiga yo'qolgan/shikastlangan mol-mulk o'rniga boshqasini taqdim etish huquqiga ega. Bunda:

- Sug'urtalovchi tomonidan almashtirish uchun taklif etilayotgan mol-mulk huddi shunday turda (ko'rinishda, klassda), almashtirilayotgan mol-mulkning holatiga o'xshash bo'lishi shart;

- sug'urta tovonini to'lovini amalga oshirgandan keyin Sug'urtalovchi shikastlangan mol-mulkka egalik qilish huquqini uning barcha ro'yxatga olish hujjatlari va unga egalik qilish huquqini beruvchi hujjatlar bilan birgalikda oladi.

10.7. Agar ushbu Sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta puli sug'urtalangan mol-mulkning sug'urta qiymatidan kam miqdorda o'rnatilgan bo'lsa, Sug'urtalovchi sug'urta hodisasi sodir bo'lganda Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchiga etkazilgan zararni O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 936-moddasiga muvofiq sug'urta pulining sug'urta qiymatiga mutanosib ravishda qoplab beradi.

10.8. Agar Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi qoplamani uchinchi shaxslardan olgan bo'lsa, Sug'urtalovchi sug'urta shartlariga muvofiq to'lanishi kerak bo'lgan mablag' bilan uchinchi shaxslardan olingan mablag' o'rtasidagi farqni to'laydi. Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi Sug'urtalovchiga bunday pullar olinganligi haqida 10 (o'n) ish kuni ichida xabar berishi shart.

10.9. Sug'urtalovchi sug'urta tovonini manfaatdor Tomonlar Sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnomani imzolanganlaridan so'ng 15 (c'n besh) kun ichida to'laydi.

10.10. Agar Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi sug'urta tovonini olgandan keyin sug'urta hodisasi natijasida mahrum bo'lingan qandaydir mol-mulkni o'z ixtiyori/foydalanishi/idorasiga qaytarsa, aybdor yoki boshqa shaxs zarar o'rnini qoplasa, Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi Sug'urtalovchiga olingan sug'urta tovonini mol-mulk qaytarilgandan yoki zarar o'rni qoplangandan keyin 15 (o'n besh) ish kuni ichida Sug'urtalovchiga qaytarishi shart.

10.11. Agar qonun hujjatlari yoki ushbu Sug'urta shartnomasiga muvofiq Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchini sug'urta tovoniga bo'lgan huquqidan to'liq yoki qisman mahrum qilishi ma'lum bo'lsa, Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi Sug'urtalovchiga sug'urta tovonini yoki uning tegishli qismini qaytarishi shart.

10.12. Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash yoki rad etish to'g'risidagi qarori sug'urta tovonini to'lovi uchun murojaat etilgandan keyin 15 (o'n besh) kundan kechiktirmay xabar qilinishi va rad etilgan taqdirda rad etilishining asoslangan sabablarini o'z ichiga olgan bo'lishi kerak.

10.13. Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'lashni rad etishi ustidan Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi yoki Naf oluvchi sudda shikoyat qilishi mumkin.

10.14. Ushbu sug'urta shartnoma buyicha Sug'urta qildiruvchi/ Qarz oluvchi /Naf oluvchi tomonidan belgilangan majburiyatlari to'liq yoki qisman bajarilmasligi sug'urta to'lovini rad etishga asos bo'ladi.

10.15. Sug'urta qilingan mol-mulkga yetkazilgan zararni o'rnini qoplash yuzasidan Sug'urtalovchi tomonidan amalga oshirilgan sug'urta tovonining har bir to'lovi, agar Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta pulini tiklash uchun qo'shimcha sug'urta mukofoti to'lanmasa, sug'urta pulini (Sug'urtalovchi majburiyatlarining limitini) bunday to'lov summasiga kamaytiradi. Bunda Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchidan to'langan sug'urta tovonini summasiga va sug'urta Shartnomasi (polisi) amal qilishining qolgan muddatiga mutanosib ravishda qo'shimcha sug'urta mukofotini to'lash to'g'risidagi xabarnomani olgan kundan 1 (bir) hafta muddatda tegishli qo'shimcha to'lovni amalga oshirishi lozim.



11. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

11.1. Tomonlar o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javobgardirlar.

11.2. Sug'urta shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmasliklari yengib bo'lmas kuch (fors major) ta'sirida kelib chiqqan bo'lsa, tomonlar javobgarlikdan ozod bo'lادilar. Yengib bo'lmas kuch ta'sirida bo'lgan tomon boshqa tomonni bunday shart-sharoit yuzaga kelganligi va qancha davom etishi mumkinligi to'g'risida xabardor qilishi shart.

12. SUBROGATSIYA

12.1. Sug'urta to'voni to'langandan keyin Sug'urtalovchiga (to'langan pul miqdorida) Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchining zarar etkazilganligida aybdor bo'lgan shaxslardan zararni qoplanishini talab qilish huquqi o'tadi.

Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi Sug'urtalovchiga sug'urta hodisasi uchun javobgar shaxsdan talab qilish uchun zarur barcha hujjatlarni berishi va harakatlarni amalga oshirishi shart.

12.2. Agar Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi aybi bilan talab qilish huquqini amalga oshirishning imkoni bo'lmay qolsa (zararda aybdor shaxslarga ariza berish muddatlarini o'tkazib yuborsa), Sug'urtalovchi sug'urta to'voni to'lash majburiyatidan ozod bo'ladi, bunda agar to'lov amalga oshirilgan bo'lsa, Sug'urta qildiruvchi olingan tovon pulini Sug'urtalovchining da'vosini olgan kundan boshlab 10 (o'n) ish kuni ichida qaytarishi shart.

13. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH VA UNI OLDINI OLISH

13.1. Mazkur Ofertaga amal qilish hamda unda belgilangan vazifalarni amalga oshirish davomida bankning "Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati" hamda "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizom" talablariga amal qilinishi lozim.

13.2. Yuzaga kelgan, shuningdek, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsion havflar va manfaatlar to'qnashuvi holatlari yuzasidan bankning Komplayens nazorat boshqarmasiga og'zaki yoki yozma shaklda murojaat qilinishi lozim.

13.3. Sug'urta shartnomalar bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, har qanday noqonuniy ustunlik yoki boshqa imtiyozlarni olish maqsadida, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki vakillari ushbu shaxslarning harakatlari yoki qarorlariga ta'sir qilish uchun, har qanday shaxslarga haq to'lamaydilar, to'lashni taklif qilmaydilar va hech qanday pul mablag'lari yoki qimmatbaho buyumlarni to'lashga yo'l qo'ymaydilar.

13.4. Sug'urta shartnomalar bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki vakillari, amaldagi qonunchilikka muvofiq pora berish va olish, tijoratda pora evaziga og'dirib olish, shuningdek jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik talablarini va xalqaro hujjatlar talablarini buzadigan harakatlarni sodir etmaslik majburiyatini oladilar.

13.5. Agar Tomonlardan biri ushbu bandning har qanday qoidalarining buzilishi sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin deb gumon qilsa, tegishli tomon boshqa tomonni yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi. Yozma bildirishnomada tomon boshqa tomon, uning xodimlari yoki vositachilari tomonidan ushbu bandning har qanday qoidalari buzilishi sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin bo'lganligini ishonchli tasdiqlovchi yoki ishontirish uchun asos bo'ladigan faktlarga havola qilishi yoki materiallarni taqdim qilishi kerak.

13.6. Agar Tomonlardan biri ushbu band qoidalarini buzsa, boshqa Tomon shartnomani bir tomonlama bekor qilish to'g'risida yozma bildirishnoma yuborish orqali shartnomani suddan tashqari bir tomonlama tartibda bekor qilishga haqli.

14. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

14.1. Sug'urta shartnomasidan kelib chiquvchi yoki u bilan bog'liq bahslar, kelishmovchiliklar taraflar o'rtasida kelishuv yo'li bilan hal etiladi.

14.2. Taraflar o'rtasidagi nizolar kelishuv yo'li bilan hal etilmaganda, nizolar amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudga murojaat qilinadi.

15. BOSHQA SHARTLAR

15.1. Ushbu Sug'urta shartnomasining shartlarini o'zgartirish tomonlarning kelishuvi bilan bo'lishi mumkin. Sug'urta shartnomasini o'zgartirish to'g'risidagi kelishuv yozma shaklda amalga oshiriladi.

15.2. Tomonlarning ushbu sug'urta shartnomasida bayon etilmagan o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

16. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI, REKVIZITLARI VA IMZOLARI:

NAF OLUVCHI «Open bank» AJ	SUG'URTALOVCHI «MY-INSURANCE» AJ ST
Yuridik manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Shahrisabz ko'chasi, 2A H/R: 29801000900001199001 MFO: 01199 STIR: 310123822 Tel.: (78) 777-13-77	Yuridik manzili: Toshkent shahri, Mirobod tumani kichik Mirobod ko'chasi 95 uy H/R: 20208000904786066012 TIF Milliy bank "Sayoxat" BXM MFO: 00450 STIR: 207 002 342 Tel: (71) 205-19-19 E-mail: info@mvinsur.uz
Boshqaruv raisi o'rinbosari  I.B. Egamov m.o.	Bosh direktor  A.Q. Yuldashev m.o.


15.01.2026.

